

ARGILLA MATERICA

TEXNIK PASPORT

AM/00

Texnik xususiyatlari va sifati

ARGILLA MATERICA – bu ohak asosidagi, tarkibiga gil qo‘shilgan dekorativ materialdir. Vizual effekti bo‘yicha – bu o‘ziga xos fakturaga va nafis estetikaga ega bo‘lgan tabiiy pardoqlash qoplamasidir. Material o‘ta qayshqoq (egiluvchan) va surtish uchun juda qulay, chunki gil plastiklikni, ishlov berish qobiliyatini oshirish va unga issiq xromatik (rang) tuslar berish xususiyatiga ega. U, shuningdek, sirtning yumshoq, nafis, teginish uchun ham, ko‘z uchun ham yoqimli ko‘rinishini saqlagan holda, sezilarli qalinlikdagi takrorlanmas tekstura va badiiy shakllarni yaratish imkonini beradi.

Xom ohak va gilning nafis uyg‘unligi tabiiy, yumshoq va mukammal mot estetik ko‘rinish hosil qiladi. Bu esa xonalarga yuqori darajada havo o‘tkazuvchanlik xususiyatini berib, namlik almashinuvini ta‘minlaydi, kondensat hamda yo‘sin (mox) hosil bo‘lishining oldini oladi. Bundan tashqari, materialning ishqoriy tabiati sirtning mog‘or va bakteriyalardan himoya qiladi. Gilning tabiiy xususiyatlari atrof-muhitning issiqlik va akustik sharoitlarini yaxshilab, ekologik qulaylikka hissa qo‘shadi.

Ushbu material tarixiy binolarni restavratsiya qilish, "yashil uylar" (ekologik uylar) va sog‘lom hamda tabiiy muhit talab etiladigan interyerlar uchun juda mos keladi. ARGILLA MATERICA bilan tabiat go‘zalligi insonlar va yashash maydonining farovonligini maksimal darajada hurmat qilgan holda shaklga kiradi.

Qo‘llanish sohalari

Ichki devorlarni dekorativ pardoqlash.

Asosni (yuzani) tayyorlash

Asoslar yaxshi qurigan va qotgan bo‘lishi kerak. Ko‘chayotgan qismlar butunlay yo‘qolishi uchun yuzani diqqat bilan tozalang yoki eski bo‘yoqni olib tashlang. O‘ta zarur hollarda, kuchli shimuvchi yoki uvalanuvchan asoslarni zichlashtirish uchun tegishli nisbatda suyultirilgan **CONSOLIDANTE CALCE** mustahkamlovchi ohak vositasidan foydalanish mumkin. Yomon shimuvchi bo‘yoqlarni esa, adgeziyani (yopishishni) yaxshilash va ularni g‘ovakli holatga keltirish uchun silliqlash (shkurka qilish) kerak.

Diqqat: Devorlar donadorligi bo‘yicha ham, shimuvchanligi bo‘yicha ham bir xil (odnorod) bo‘lishi lozim; zarur bo‘lsa, devorni **RASATURA ALLA CALCE** ohakli material yoki shpatlyovka bilan tekislang. Baza mahsuloti sifatida **PRIMER** yoki **BLANKOR** surting.

Texnik xususiyatlari: Surtish jarayoni

Ko'rsatkich	Tavsif / Shartlar
Suyultirish	Foydalanishga tayyor
Sarfi	EFFETTO CALCE CRUDA / GEOMETRICO: 1-1,5 kg/m² EFFETTO GRAFFIATO: 1,9-2,3 kg/m² EFFETTO SPATOLATO / NATURALE: 2,2-2,7 kg/m² <i>(DIQQAT: Sarf miqdori surtilayotgan qatlam qalinligiga qarab sezilarli darajada o'zgarishi mumkin)</i>
Surtish asboblari	OIKOS zanglamaydigan po'lat shpateli (art. 113), gubkali qo'lqop (Guanto in Spugna, art. 115), tishli Tampone Millerighe (art. 133), tishli shpatel Spatola Dentata (art. A01)
Mustahkamlovchi vositalar	Il Primer, Blankor
Himoya mahsuloti	Bentoncryll Idrorepellente
Surtish harorati	+5°C ÷ +36°C (havoning nisbiy namligi 80% dan yuqori bo'lmagan holatda)
Yuzaki qurish vaqti	2,30 soat (20°C harorat va 75% nisbiy namlikda)
To'liq qurish vaqti	24 soat (20°C harorat va 75% nisbiy namlikda) <i>(Diqqat: ko'rsatilgan vaqt surtilayotgan qatlam qalinligiga bog'liq)</i>
Asboblarni tozalash	Suv bilan

Texnik xususiyatlari: Mahsulot

Ko'rsatkich	Tavsif / Qiymat
Tarkibi	Gil, ohakli shpatlyovka, to'ldiruvchi mikronizatsiyalangan materiallar, titan dioksidi, rangli pigmentlar.
Solishtirma og'irligi	1,5 kg/l
Donadorligi	Maksimal = 0,2 mm
pH	12,5 ÷ 13,5
Saqlash harorati	+2°C ÷ +36°C. Muzlashdan asrang
Bug' o'tkazuvchanligi	V1 klassi (yuqori o'tkazuvchanlik), Sd=0,0185 m (EN ISO 7783-2:2001)
Adgeziya mustahkamligi	$f_h = 0,9 \text{ MPa}$ (minimal $f_h > 0,3 \text{ MPa}$) (EN 1542:2000)
Chidamliligi (Durability)	$f_h = 0,4 \text{ MPa}$ (minimal $f_h > 0,3 \text{ MPa}$) (EN 13687-3:2003)
Istalik o'tkazuvchanligi	$\lambda_{10, \text{dry}} = 0,36 \text{ W/mK}$ (SP=90%) (EN 1745:2005)
Uchuvchi Organik Birikmalar (VOC) cheklovi	2004/42/EC Ko'rsatmasiga muvofiq tegishli klass: A/a; VOC: < 1 g/l; II-faza cheklovi (1.1.2010-yildan): 30 g/l
Ranglari	Oq + rang katalogidagi ranglar
Qadoqlanishi	5 – 20 kg

Surtish usullari

- EFFETTO CALCE CRUDA (Xom ohak effekti):** Keyingi pardoqlash uchun asos yaratish maqsadida ARGILLA MATERICA mahsulotining birinchi yupqa qatlamini Spatola Oikos (art. 113) shpateli yordamida yuzaga surting. Birinchi qatlam quriganidan so'ng, shpatelga bir oz ARGILLA MATERICA olib, sirtida notekis material qismlarini qoldirgan holda xususiylashtiring (tamponlang). Hech qanday qo'shimcha mahsulot qo'shmasdan, bo'shliqlarga ega silliq yuzani hosil qilish uchun sirtini zanglamaydigan po'lat shpatel bilan darhol zichlang.

- **EFFETTO GEOMETRICO (Geometrik effekt):** Ishlov berish kerakli o'lgamdag tishli shpatelni tanlash orqali amalga oshiriladi. Agar keng tishli shpatel tanlansa, ARGILLA MATERICA mahsulotini to'g'ridan-to'g'ri devorga o'sha shpatel bilan surtish mumkin. Agar mayda tishli shpatel (masalan, tishli Spatola Dentata Oikos, art. A01) tanlansa, mahsulot dastlab oddiy shpatel bilan devorga teng taqsimlanadi, so'ngra tishli shpatel bilan parallel ariqchalar (chiziqlar) hosil qilib ishlov beriladi. Bir xil rangdagi praymerdan (astar) foydalanish tavsiya etiladi.
- **EFFETTO GRAFFIATO (Chizilgan / Tirnalgan effekt):** ARGILLA MATERICA materiali bilan yuzada taxminan 2 mm qalinlikdagi bir xil tekis qatlam hosil qilib, birinchi yupqa shpatlyovka jarayonini bajaring va notekis tirnalishlar hosil qilish uchun Tampone Oikos Millerighe (art. 133) asbobi bilan ishlov bering. Shundan so'ng, gubkali qo'lqop (Guanto in Spugna, art. 115) yordamida sirtni darhol ehtiyotkorlik bilan tamponlang. Bir xil rangdagi praymerdan foydalanish tavsiya etiladi.
- **EFFETTO SPATOLATO (Spatolato effekti):** Taxminan 2 mm qalinlikda bir xil tekislikdagi ARGILLA MATERICA qatlamini surting va darhol Oikos shpatelining (art. 112-113-114) uchi bilan shpatel izlarini hosil qiling. Material qurishidan oldin uni gubkali qo'lqop (Guanto in Spugna, art. 115) bilan tamponlang.
- **EFFETTO NATURALE (Tabiiy effekt):** Keyingi ishlov berish uchun asos yaratish maqsadida zanglamaydigan po'latdan yasalgan Spatola Oikos (art. 113) shpateli yordamida yuzaga ARGILLA MATERICA mahsulotining birinchi yupqa qatlamini surting. Mahsulot to'liq qurishidan oldin, ba'zi joylarda ma'lum bir qalinlikni hosil qilib, ARGILLA MATERICA'ning ikkinchi qatlamini notekis taqsimlang, boshqa joylarni esa bo'sh qoldirish mumkin. Yana shpatel yordamida kerakli qalinlik va teksturaga mos ravishda tomirlar hamda quyqalar hosil qilish mumkin. Istalgan vaqtda, hatto qurigandan keyin ham qo'shimcha material surtish imkoniyati mavjud.

OGOHLANTIRISH: ARGILLA MATERICA – bu tabiiy mahsulot bo'lib, suvga o'ta ta'sirchandir. Suv tegishi unda rang o'zgarishini keltirib chiqaradi.

Pardozlash qatlami

Yuqori suv qaytaruvchanlik (gidrofoblik) xususiyati va himoyani ta'minlash uchun taxminan 7 kundan keyin **BETONCRYLL IDROREPELLENTE by OIKOS** vositasini surtish tavsiya etiladi.

Asosiy texnik shartlar

OIKOS kompaniyasining ohakli shpatlyovka va gil asosidagi interyerlar uchun mo'ljallangan, havo o'tkazuvchan **ARGILLA MATERICA** nomli dekorativ qoplamasini surting. Devorni tayyorlash va surtish usullari effektini hosil qilish uchun ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga muvofiq bajarilishi kerak.

Barcha jarayonlar surtish qoidalariga rioya qilingan holda, qurilish havoza (lesa)larisiz, material va surtish ishlarini ichiga olgan holda 1 m² uchun — qiymatda amalga oshirilishi shart.



Eslatmalar

Oikos Spa kompaniyasi ushbu texnik pasportda keltirilgan ma'lumotlar o'zining texnik va ilmiy bilimlariga tayangan holda eng xolis tarzda taqdim etilganini kafolatlaydi. Yuqorida aytib o'tilganlarga qaramay, Oikos o'z mahsulotini qo'llash natijasida olingan natijalar uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi, chunki surtish usullari kompaniyaning nazorati va/yoki tekshiruvi doirasidan tashqaridadir. Shu sababli, har bir muayyan holat uchun har bir mahsulotning mos kelishini oldindan tekshirib ko'rishni tavsiya etamiz.



ООО "COLORLAB"

г. Ташкент, Яшнабадский район Паркентский рынок, 13-блок

Тел: +998 98 304 30 33 +998 99 866 89 88

